



OSIYO MAMLAKATLARIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING QIYOSIY TAHLILI

Ro'ziboyeva Ma'mura Abdunabiyevna

Toshkent texnologiya, menejment va kommunikatsiya

Institut Pedagogika va psixologiya kafedrasida p.f.f.d. (PhD) dotsent

74mamuraxon@gmail.com

Nurmurodova Muslimaxon Elmurod qizi

Toshkent texnologiya, menejment va kommunikatsiya

Institut Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda globalashuv va sanoat inqilobi muhiti har bir davlat va xalqaro maydondagi raqobatbardoshlik tamoyiliga yuqori urg'u berishni boshladi. Hozirda mamlakatning kuchi tabiiy boyliklar yoki resurslarining zahiraviy bazasi bilan emas, yurtning yosh o'quvchi va talabalarining ilmiy salohiyati bilan o'lchanmoqda. XXI – asr tom ma'noda “Osiyo davri” deb talqin qilina boshladi. Mazkur ilmiy bayonat davomida siz ushbu mintaqaning ta'lim modelidagi o'ziga xoslik va barqaror prinsplar bilan tanishasiz. Inson kapitali uchun ajratilgan investitsiyalarning qiyosiy tahlilini kuzatasiz.

Kalit so'zlar: Meritokratiya tizimi, life-long learning dasturi, xalqaro baholash mezon natijalari, innovatsion strategiyalar.

Abstract: Today, the environment of globalization and industrial revolution has begun to emphasize the principle of competitiveness in every country and international arena. Currently, the strength of the country is measured not by the reserve base of natural wealth or resources, but by the scientific potential of the country's young pupils and students. The 21st century began to be interpreted literally as the "Asia era". During this scientific statement, you will get acquainted with the uniqueness and sustainable principles of the educational model of this



region. You will observe a comparative analysis of investments allocated to human capital.

Key words: Meritocracy system, life-long learning program, results of international assessment criteria, innovative strategies.

Аннотация: Сегодня среда глобализации и промышленной революции стала подчеркивать принцип конкурентоспособности в каждой стране и на международной арене. В настоящее время сила страны измеряется не резервной базой природных богатств или ресурсов, а научным потенциалом школьников и студентов страны. XXI век стал буквально трактоваться как «эпоха Азии». В ходе этого научного выступления вы познакомитесь с уникальностью и устойчивыми принципами образовательной модели этого региона. Вы увидите сравнительный анализ инвестиций, направленных в человеческий капитал.

Ключевые слова: система меритократии, программа непрерывного обучения, результаты международных критериев оценки, инновационные стратегии.

KIRISH:

Globalashuv davrida eng yuqori samaradorlik va ta'limning yetakchi kuchi Osiyo mintaqasi xalqalari qo'liga o'tdi. Bu davrda Osiyo xalqlari 3 xil tamoyil asosida ta'lim-tarbiya jarayonini yo'lga qo'yishdi. Dastavval Sharqiy Osiyo xalqlarining kuchli texnologik va butunlay zid g'oya yoki mafkuralardan ozod bo'lgan xolda o'z milliyiligiga urg'u berish darkor deb o'ylayman.

Asosiy qism:

Bu borada inson kapitalining safarbarligi orqali yuksalib kelayotgan jamiyat hayotini barqarorligini to'liq nazorat qilishga asoslangan Singapur davlati haqida



so'z yuritish lozim. Pisa PIRLS yoki TIMSS kabi bir qancha xalqaro baholash doiralarida hozirga qadar birinchilikni topshirmagan bu hudud "Osiyo yo'lbarisi" ta'rifiga mutloq mos, meritokratiya dasturi vujudga kelgan va butun mamlakat hududida faoliyat olib borilishi to'liq nazorat qilinadigan jamiyatdir. Xitoy xalq respublikasi tarkibiga kirgan Makao mamlakati raqamli axborot va innovatsion dunyo talablariga javob beruvchi yoshlar guruhini tashkil qiluvchi, "Osiyo fenomini"ning eng yuksak tirgaklarini o'zining rivojlanish yo'lida dastak bilgan, ikkinchi darajali arealdir. Tayvan esa global dunyoda STEAMni ayniqsa matematika va muhandislik ilmlarini muhim sanab bu bilimlar orqali yangi megapolistlarni yaratayotgan ilg'or yetakchidir. O'zining nodir axloqiy tizimi maktab hayotidanoq mas'uliyatli va dasturli tazimni yo'lga qo'ygan, qat'iy intizom va etnomadaniy harakatda faoliyat olib boruvchi, jahon ta'lim modellarini o'z yurti tizimiga muvaffaqiyali moslashtirgan Yaponiya davlati hech qachon Osiyoning kuchli 5 ligini tark etmaslikka urinadi. Akademik shiddat kuchida qat'iy intizom bilan yuksalayotgan Janubiy Koreya qisqa vaqt ichida o'z tendensiv yondashuvlarini yo'lga qo'ya olgan davlatdir. Ushbu mamlakatlar xalqaro baholash mezonlari, PISA reytinggi va PIRLS hamda boshqa bir qancha dasturlarning yetakchi natijalarini qayd etgan kelajak sari olg'a qadam tashlagan yetuk ta'lim tajribasiga tayanuvchi hududlardir.

STEAM va Oliy ta'lim uchun dastlabki beshik bo'lgan Janubiy Osiyo hududlari Xususan Hindiston, Bangladesh yoki bir qancha mamlakatlar moddiy yetishmovchilik yoki ijtimoiy inqirozga qaramay tibbiyot va IT yo'nalishlarida dunyoning yetakchi shaxslarini yetkazib chiqarishmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari esa bu yo'nalishda eng asosiy urg'uni tarbiyani ajralmas bo'lak qilib shakllantirishga qaratganlar. Bugungi kunda "Tiklanish jarayoni"da bo'lgan O'rta Osiyo okrugi respublikalari uzoq yilgi ta'limiy inqirozdan so'ng o'z shon-u shavkati va tarbiyaviy qudratini yuksaltirishga katta e'tibor



bermoqda. Bunga misol tariqasida Prezident Sh.M. Mirziyoyevning “Moddiy va ma’naviy hayotni uyg’un rivojlantirishimiz kerak. Maktab bu borada asosiy bo’g’in bo’lishi lozim”,- deb fikr yuritilgan iqtiboslarini keltira olamiz. O'zbekiston "Milliy dastur"iga ushbu Singapur ta'lim modelining tajribasi va Janubiy Koreya akademik ko'nikmasi hamda yuqori intizomlilik tizimini moslashtirish natijasida kelgusida jahon mehnat bozorida o'z o'rni va munosib lavozim hamda mansablar uchun loyiq kadrlar tizimini yetishtirishimiz mumkin. Zero mamlakatning ertasi, uning egasi va kelgusidagi istiqbolli qadamlarini belgilab beruvchi shaxslar aynan o'sib kelayotgan yosh avloddir. Yuqoridagilardan kelib chiqib Osiyo fenomenining afzalliklari undagi yetuk ko'nikmalarni amaliy hayotga tatbiq etish yangi qadam va uzoq vaqtgi natijalar uchun poydevor sifatida qaraladi deb xulosalash mumkin. Biz yuqorida namuna sifatida keltirgan mamlakatning ta’lim islohatidagi eng yuqori nuqta bu **ota-ona hamkorligi** va **jamoaviylik ruhidir**. Shuningdek o'qishdan va maktabdan tashqari vaqtda ham o'qish va bilim olish uzviyligini ta'minlash ko'plab Osiyo mamlakatlarida ota-onaning kuchli nazorati va doimiy qo'llav quvvatlashi natijasida shakllanadi. Ayniqsa bu borada Janubiy Koreya usullari bu tamoyilni butun xalq bilan bir ovozda maqullab ijoyib baholagan davlatlar sirasida etajchi qatorlardadir. Biz tilga olishimiz darkor bo'lgan yana bir omil bu sog'lom raqobat kayfiyatini saqlab qolish, har bir rivojlanayotgan yosh avlod o'ziga tengdosh bo'lgan chet ellik yoki yaqin Osiyolik hamyoshi bilan zabardast tarzda aloqada kirisha olishi kerakligi o'rgatishdir.

Xulosa

Osiyo fenomenining asosini tiklanish jarayonida bo'lgan mamlakatimizning milliy ta'lim dasturiga o'rinli tavsiya etish kelajakda muhim kadrlarning o'sishi uchun debochadir. Tadqiqot va hisobat natijalari shuni ko'rsatadiki, xorij texnologiyasi nafaqat rivojlanish balki keng ma’naviy va ma'rifiy g'oyalar madaniyatlar va urf-odatlar almashinuvi qobiliyatini rivojlantirish bilangina to'xtab



qolmay u insonlarga ma'lum qolib va standartlardan tashqariga chiqish kreativ va noyob yechimlarning bahosi yuqori ekanini va ular keltiradigan naf yetuk darajada serhosil ekanini ham o'rgatadi. Ayniqsa ta'limning ushbu moslashuvchanlik harakati ilk bosqichlar ya'nikim maktabgacha va boshlang'ich daraja o'quvchilarining hayotlariga tatbiq etishilishi o'quvchilarning yoshlik davridanoq raqobatbardosh va sinovlarga chidamli yuqori mas'uliyatli va qat'iy, irodali shaxs etib tarbiyalashda asqotuvchi usullardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. insonhuquqlari.uz <http://insonhuquqlari.uz>

2. Asia Society <https://asiasociety.org>

Advancing 21st Century Competencies in East Asian Education Systems

3. <https://google.com>